

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
IMFAKTOR ILMIY NASHRLAR MARKAZI

**“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”**

mavzusidagi I respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

25-noyabr 2023-yil

ANJUMAN HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022– 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2909-son qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli buyrug‘ining ijrosini ta’minlash maqsadida **2023-yil 25-noyabr** kuni Termiz davlat pedagogika institutida **“Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar”** mavzusida I respublika ilmiy anjuman bo‘lib o‘tadi.

Anjumanga oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, mutaxassislar, ilmiy xodim va izlanuvchilar hamda iqtidorli talabalar va magistrantlar taklif etiladi.

Konferensiyaga qabul qilingan har bir tezis **Google Scholar** xalqaro qidiruv tizimida indekslanadi. Konferensiya ishtirokchilariga elektron variantda **anjuman materiallari to‘plami** va maxsus **sertifikat** taqdim etiladi.

Anjuman o‘tkazilish vaqti: 2023-yil 25-noyabr.

Anjuman o‘tkazilish joyi: Termiz davlat pedagogika instituti.

Anjuman tili: o‘zbek, rus, ingliz.

Maqolalar qabul qilinishi oxirgi kuni: 2023-yil 20-noyabr.



ANJUMAN YO‘NALISHLARI

1. *Botanikada ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar: muammolar hamda ularning yechimlari*
2. *Zoologiya: fauna, sistematika, ekologiya: muammo va zamonaviy yechimlar*
3. *Genetik tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari*
4. *Qishloq xo‘jaligining rivojlanishida biologik tadqiqotlarning ahamiyati*
5. *Tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar.*

KONFERENSIYA MATERIALLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Maqolada ko‘tarilgan muammolarning mazmuni, tadqiqot uslubining tavsifi, muallif tomonidan olingan natijalar, ma‘lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo‘lishi kerak.

Rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

Maqola nomi, annotatsiya va kalit so‘zlar ko‘rsatib o‘tilishi lozim (*uch tilda: o‘zbek, rus, ingliz*);

Maqola matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm xoshiyaga ega bo‘lishi kerak;

Maqola Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 o‘lchamida, 1,15 intervalda bo‘lishi va 3 betdan oshmasligi lozim (*Namuna ilova qilinadi*). Taqdim etilgan maqolalar tahrir hay‘ati tomonidan ko‘rib chiqiladi va ilova qilingan maqola formatiga mos kelishi kerak. Tezislarga keltirilgan ma‘lumotlarga muallifning shaxsan o‘zi javobgar bo‘ladi. Ilmiy konferensiya mavzusi va nashr talablariga javob bermaydigan, shuningdek, ekspert tahlilidan o‘tmagan maqolalar qabul qilinmaydi.

TASHKILIY QO‘MITA MANZILI

Manzil: Termiz shahri, I.Karimov ko‘chasi, 288^B-uy. TDPI, Tabiiy fanlar fakulteti binosi.

Anjuman o‘tkazish uchun mas’ullar: Tabiiy fanlar fakulteti, “Biologiya va uni o‘qitish metodikasi” kafedrası. **e-mail:** hayitovabdurasul32@gmail.com

Maqolalar +99899 674-21-48 (A.Qayimova) va +99890 318-58-43 (A.Hayitov) telegram manzili orqali qabul qilinadi.

ANJUMAN MATERIALLARINI TAQDIM ETISH

Maqolalar **2023-yil 20-noyabr kuniga** qadar qabul qilinadi. Har bir tezis uchun 50 ming so‘m miqdorda to‘lov qilinadi. To‘lovlar **9860 0401 1689 3013** (*Aziza Kayimova*) raqamli kartaga amalga oshiriladi. To‘lov amalga oshirilgach to‘lov cheki taqdim etiladi.



